

## USMON NOSIR SONETLARIDAGI SAN'AT

**Gulchiroy Turdaliyeva**

A.Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot univetsiteti

2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11440490>


Usmon Nosir ijodi ko'p qirrali bo'lib, har jabhada yuksak mahorat bilan qalam tebratganini bilamiz. Xususan, uning **sonet** janrida ham yozilgan asarlari bo'lib o'zbek sonetchiligi rivojini bir pog'onaga ko'tardi. XX asrning 20-yillarida paydo bo'lgan o'zbek soneti asrning oxirgi o'n yilliklariga kelib o'zining taraqqiyot bosqichlariga ko'tarildi, tematik diapason kengaydi. Sharq va G'arb she'riyatining an'analari birlashib, o'ziga xos original o'zbek soneti maktabi yuzaga keldi. Badiiy-falsafiy fikrlash tadriji o'sdi. Davr va hayot haqiqatini ifodalashda sonet ixcham, imkoniyatlari keng qulay janrlardan biriga aylandi.

Sonetning ilk namunalari bilan bugungi sonet tadriji taqqoslanganda u ancha murakkab va rang-barang takomil yo'lini bosib o'tganligini ko'rish mumkin. Muhimi, bu janrda ham yirik ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni ko'tarib chiqish va ularni badiiy tadqiq etish imkoniyatlari hech bir janrdan qolishmaydi. Jumladan, sonetlarda milliy koloritni aks ettirish, jahon tajribalarini ijodiy o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishildi.

Sonet turkumi masalasi o'zbek sonetshunosligida alohida o'rin tutadi. O'zbek adabiyotidagi mavjud materiallar bizga bu mavzuda mulohaza yuritish imkoniyatini beradi. Ushbu janrni o'zbek she'riyatida rivoj topishiga Usmon Nosirning hissasi katta deb bilamiz.

Sonet – qo'shiq degan ma'noni anglatib, **14 misradan** iborat she'riy janr hisoblanadi. Dastlab italyan she'riyatida paydo bo'lgan ushbu janr ikki to'rtlik va ikki uchlik bandlardan iborat. To'rtlik bandlar **katrena** (katren), uchlik bandlar **tersena** (terset) deb ataladi. To'rt misrali bandlarining qofiyalanish tartibi **abab, abab** yoki **abba abba** bo'lsa, uchliklari **vgv gvg** yoki **vgd vgd** tarzida bo'ladi.

U A.Faynberg iste'dodini ta'kidlashi, uning sonet yo'lidagi urinishlarini ijobiy baholashi barobarida, sonetning hech qachon «erkin» bo'lishi mumkin emasligini aytib o'tadi: «Kitob nomining o'ziyoq antiqa, — deb yozadi shoira, — chunki sonetlar hech qachon «erkin» bo'lmaydi». Biroq atoqli rusiyzabon shoirimiz o'zining bundan avval nashr etilgan “Nevod” nomli tanlangan she'rlar kitobiga qat'iy qonun asosida yozilgan o'n sonetni kiritgan. Qizig'i shundaki, ularning birida shoir an'anaviy temir qonun ishlanjasida yaratilgan asarnigina sonet deb atash mumkin va shunday sonetni yozgan shoirigina haqiqiy erkin



shoir degan nomga loyiqdir, deydi hamda bu falsafiy fikrni sonet shakliga soladi.[1.B.175]

Shunday qilib, ko'rib o'tgan shoirlarimiz ichida faqat U.Nosir va A.Faynberg haqiqiy sonet qonun-qoidalariga amal qilgan. Biz ham, tabiiyki, ana shu yo'lni qo'llab-quvvatlaymiz: yuqorida aytganimizdek, faqat qat'iy qonunga — qat'iy joylashuv va qofiyalanish tartibiga ega bo'lgan sonetnigina e'tirof etamiz, qolgan «yangiliklar»ni, Bexer izidan borib, sonet emas, o'n to'rt satrli oddiy she'rlar, deb atash tarafdorimiz. Zero, g'azalning shakliy qonun-qoidalarini buzib bo'lmaganidek, sonet shaklini ham buzish mumkin emas. Mulohazalarimizni buyuk olmon mutafakkiri, shoir va adib, romantizm oqimining nazariyotchisi Avgust Vilhelm Shlegelning sonet nomidan yozgan satrlari bilan, fikrimizni qo'llab-quvvatlovchi bir sonet:

Men ikki katrenni bog'layman tarang,  
Ikki juft satrga bir qofiya — soz!  
Ikkinchi juftligim birinchiga mos,  
Biriga ulanar ikkinchi jarang.  
Ikkala tertset-chi, erkin, rang-barang,  
Endi qofiyalar zanjirdan xalos  
Va lekin baribir tartibim mumtoz:  
Qay mavzu bo'lmasin — sevgimi yo jang.  
Kimki bandlarimning qonunin buzsa,  
Shunchaki ermak deb bilsa uni kim,  
U gultoj kiyganlar safida bo'lmas.  
Biroq kim sehrimni anglab so'z tuzsa,  
Teranlik, kenglikni quchib tor shaklim,  
Nomoslik moslikka bo'lur hamnafas. [2]

“Birinchi to'rtlikda asosiy fikr o'rtaga tashlanadi, ikkinchi to'rtlik bu fikrni rivojlantiradi; birinchi uchlik yechim bo'lsa, ikkinchi uchlik xotima hisoblanadi”


U.Nosirning “Yana she'rimga” asari esa sonetning go'zal namunasi.

She'rim , yana o'zing yaxshisan,  
Boqqa kirsang gullar sharmanda.  
Bir men emas, hayot shaxsisan,  
Jonim kabi yashaysan manda.

Usmon Nosir ushbu she'rida, ijodning shirin azob ekanligi-“yurakning dardi naqshi” ekanligini lirik kechinmalar vositasida sharhlab beradi.

Sen orada ko'prik bo'lding-da

Geyne bilan o'rtoq tutindim



Lermontovdan ko‘mak o‘tindim.

Shoir adabiyot sirlarini Geyne, Lermontovlardan uqqanligini aytar ekan, aynan shu sonetni ham ulardan o‘rganganligini ta’kidlaydi. Chindan ham Geyne Lermontovlar sonet janrida samarali ijod etishgan, boy meros qoldirishgan.

Usmon

Nosirning lirik qahramoni bir qadar ko‘tarinki romantik kayfiyatda fikr yuritadi, hayotga umidvor qaraydi. Usmon Nosir Geyne, Lermontovlardan o‘rganganini tan

olgani bilan, ularga ergashib ketmaydi. G‘arbona shaklga milliy ruh kiritdi, ya’ni sonetni o‘zbekcha jaranglata oldi.

“O‘t bo‘lurmi ishqiy yo‘q tanda?”

“Men–Majnunman, she’rim sen-Layli” kabi satrlari an’anaviy mumtoz she’riyatimizda ko‘rinadigan tafakkur tarzining o‘ziga xos, yangicha talqinidir. Ushbu asar sonet qoidalariga to‘la–to‘kis javob bera oladi. U ikki to‘rtlik va ikki uchlikdan iborat bo‘lib, qofiyalanish sxemasi: *abab, avva, gdd, yeyoyo* shaklida.

Usmon Nosirning lirik she’r, peyzaj lirikasining ustasi ekanligini uning **“Dengizga”** nomli soneti misolida ham ko‘rsa bo‘ladi.

Oq dengiz, yaxshi qol! Yaxshi qol, Shimol!

Ko‘nglimda ishqingni olib qaytaman.

Sochimni o‘ynaydi muzdek sho‘x shamol,

Men unga dardimni qanday aytaman?

Kechqurun qirg‘oqda aylanib tanho

Sevdim, sevib qoldim to‘lqinlaringni.

Oyni cho‘miltirgan tinch tunlaringni

Tushimda ko‘rganda ne qilarman, o’?

O‘ynagil so‘ng marta, chayqal, erkalan!

Armonim qolmasin ketar oldimda.

Bag‘ringda baliqday yuzgan oq yelkan


Bir umr sayr etgay mening yodimda...

Yaxshi qol, erkin suv! Yaxshi qol, dengiz!

To‘lqinlar, qo‘yninga qizday kirdingiz...[3.B.34]

Garchi Usmon Nosir Botu, Cho‘lponlardan so‘ng sanoqli sonetlar yaratgan bo‘lsa-da, uning asarlari shu janrning rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi, keyingi davr shoirlari tomonidan uning o‘lmas an‘analari davom ettirildi.

Sonetlar turkumini adabiyotimizda Usmon Nosir boshlab berdi. Uning “Nil va



Rim” asari sonetlar turkumining ajoyib namunasi. Sonetlar turkumi ham she’rlar turkumi kabi bir mavzu doirasidagi bir qancha sonetlardan tashkil topadi. Turkumda muayyan mavzuning yangi-yangi qirralari ochila boradi, lirik qahramon kechinmalari esa ana shu to’rtlikning yadrosidir. Mavzuga taalluqli barcha narsa shoir kechinmalaridan kuch oladi, emotsional ta’sir quvvatiga erishadi. Biz barcha narsani shoir shaxsiyati orqali qabul qilamiz, mavzuga uning nigohi bilan qaray boshlaymiz. She’rlar turkumining dostonlarga yaqin jihati bor. Bu haqda Sh. Hasanovning “XX asrning ikkinchi yarmi o’zbek dostonlari poetikasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida asosli mulohazalar bildirilgan. Uningcha O. Matjonning “Nega men” dostoni she’rlar turkumini esga soladi.

Shu mulohazalarni davom ettirib aytish mumkinki, sonetlar turkumi sonetlar gulchambariga, sonetlar gulchambari sonetlardan tuzilgan dostonlarga asos bo’lgan.

Usmon Nosirning “Nil va Rim” asari olti sonetdan iborat. Unda qadimgi Rim tarixi va siyosatiga nazar solinib, tarixiy voqelik shoirona ehtiros vositasida gavdalandiriladi. Shuning uchun shoirning o’zi ham tagsarlavhada “Tarix kitobidan” deya izoh beradi. Garchi she’rlar katren va tersetlarga maxsus bo’linmagan bo’lsa-da (balki noshirlarning xatosidir), lekin unda ma’lum fikrning o’rtaga tashlanishi, kulminatsiyasi, xulosasi kabi aniq ko’rinib turgan belgilar “Nil va Rim” ning sonnet janrida yozilganligini ko’rsatadi. Balki mavzu Rim, Italyan tarixiga aloqadorligi uchun ham shoir she’rni sonet janrida (sonetning kelib chiqishi Italiyaga taqaladi) yozgan bo’lishi mumkin. Sonetlar turkumi boshqa sonet gulchambarida bo’lganidek avvalo, muddao bayon etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Usmon Nosir. Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. – Toshkent : G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 2004. 1-tom. – B.175
2. <https://www.ziyo.com>
3. Nashrga tayyorlovchi Nodira Rashidova. Usmon Nosir. – Zabardast media, 2022. B.34

